



BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISH VA AXLOQIY TARBIYA

Bozorova Z.

*Andijon davlat pedagogika
instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, ota-ona, bolalar, axloqiy-estetik sifatlar, ma'naviyat, maktabgacha katta yosh, rivojlanish, nutq, muloqot, 5-6 yosh.

Ключевые слова: воспитание, родители, дети, нравственно-эстетические качества, духовность, дошкольный возраст, развитие, речь, общение, 5-6 лет.

Key words: education, parents, children, moral and aesthetic qualities, spirituality, preschool age, development, speech, communication, 5-6 years.

Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar ko'lami, rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti asrida ota-onalar farzandlariga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, ularning yoshiga munosib va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kerakli ta'lim-tarbiyani berib borish, ma'naviyati yuksak, har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar.

Mustaqil nuqtayi nazarga ega, ma'naviyati yuksak shaxs o'zining axloqiy-estetik fazilatlarini bilan o'zgalardan ajralib turadi. U o'ziga loyiq ko'rmagan noma'qul xatti-harakatni boshqalarga ham ravo ko'rmaydi. Axloq ilmi yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar, muammolar haqida bahs yuritadi. Axloqiy-estetik tuyg'ular faoliyat va muomala jarayonida boshdan kechiriladi. U bolaning hayotida yuz beradigan turli xildagi narsalarga nisbatan allaqanday ajoyib yoki bema'ni, fojiaiy yoki kulgili, olijanob yoki jirkanch, nafasatli yoki xunuk narsa sifatida munosabatini aks ettiradi va ifoda-laydi.

Pedagog olimlarning qat'iy ta'kidlashlaricha, bola axloqiy-estetik jihatdan to'la tarbiyalanmay turib g'oyaviy-siyosiy rivojlangan barkamol shaxs bo'la olmaydi. Uning zamirida dunyo go'zalligi to'g'risida his-tuyg'ular, tasavvur va fikrlarni tarbiyalash hamda takomillashtirish orqali inson shaxsining har tomonlama uyg'un rivojlantirish masalasi yotadi.



Bolalarni axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi pedagogik vositalarini aniqlashtirishni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirish asosi sifatida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish muammosi eng avvalo, Hukumat-imiz tomonidan aniq belgilab berilgan: bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish; bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat makta-bgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabga-cha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturida "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoli-yat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutish belgilab berilgan. Jumladan, "Ijodkorlik" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola quyidagi layoqatlarga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan: san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi; milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi; san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar, hayot voqe'ligi, buyumlar, ularning rang-barangligi va turlari, o'zini tuta bilish, muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o'z-o'ziga baho berish kabi sifatarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha pedagogika va psixologiyada katta maktabgacha yosh davri sifatida 5-6 yosh qabul qilingan. Maktabgacha katta yosh davrida qoidaga muvofiq murakkab va uzoq davom etadigan jarayon sifatida nutqni o'zlashtirish jarayoni tugaydi. Til fikrlash va muloqot, ongli o'rganish obyektiga aylanadi. Chunki bolani maktabga tayyorlash vaqtida o'qish va yozishga o'rgatish boshlanadi, fonematik rivojlanish tugallanadi. Mazkur yosh davrida nutqning so'z boyligi jadal ortadi, uning grammatik qurilishi rivojlanadi.



Shuningdek, bolalar sintaktik (gap tuzish) va morfologik (soʻz yasash) qoidalarni egallaydi. M.I.Lesina taʼkidlab oʻtganidek, muloqot vaziyatli tavsifdan bilish jarayoni obyektiga aylanadi. Bolalar shaxslararo munosabatlarning oʻziga xosligiga alohida eʼtibor qarata boshlaydi.

Maktabgacha yoshda idrok oʻzining dastlabki affektiv tavsifini yoʻqotadi: emotsional va pertseptiv jarayonlar farqlanadi, tahlilga, aniq maqsadga yoʻnalgan, ongli idrok etish shakllanadi. Bo-lada erkin harakatlar – izlash, eʼtibor qaratish, kuzatish, nutq yordamida turli narsa-buyumlar va ular oʻrtasidagi munosabatlarning holati, belgilari va sifatlarini nomlashdan faol foydalanish qobiliyati namoyon boʻladi. Tafakkurning rivojlanishi koʻrgazmali-harakatlilikdan koʻrgazmali-obrazlilikka, keyinroq ogʻzaki fikrlashga oʻtadi. Shuning uchun koʻrgazmali-obrazli, V.V.Lavrentyev taʼbiri bilan aytganda reprezentativ intellektga muvofiq tasavvurga asoslangan fikrlash asosiy sanaladi.

Taniqli pedagog olim P.Ya.Galperinning fikricha, maktabgacha yosh davri nihoyasida rivojlan-ishning uch sohasi rivojlanadi:

- a) qoidalarga rioya qilishga asoslangan erkin xulq-atvorni shakllantirish;
- b) bilish faoliyati vositalari va meʼyorlarini oʻzlashtirish;
- c) oʻz-oʻzini oʻylashdan asosiy markazga yoʻnalganlik.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning fikrlashida sezilarli oʻzgarishlar yuzaga keladi: ularning dunyoqarashi kengayadi, fikrlash operatsiyalari takomillashadi, yangi bilim va koʻnikmalar namoyon boʻladi, demak, nutq faol rivojlanadi. Faqat fikriy va til koʻnikmalari atrof-muhit bilan muloqot ja-rayonida egallanadi. Bola oʻsib-ulgʻaygan sari muloqot tarkibi murakkablashadi, bu esa, oʻz navbati-da murakkab nutq shakllarini oʻzlashtirishni talab etadi.

Maktabgacha katta yoshda bilish jarayonlarida koʻplab oʻzgarishlar yuzaga keladi. V.S.Muxinaning fikricha, 6-7 yoshda idrok etish affektivlikdan emotsionallik va pertseptivlikka oʻzgaradi. Idrok etish tahliliy, maqsadga yoʻnalganlik va onglilik kasb etadi. Unda erkin harakatlar – izlash, tekshirish, kuzatish namoyon boʻladi. 6-7 yoshda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishining oʻzi yuqori ahamiyatga ega. Bu orqali rejalashtirilgan nutqiy funktsiyani yaxshilash imkoniyati yuzaga keladi. V.S.Muxinaning fikricha, bu diqqatni jamlashning universal usulini oʻzida aks ettiradi. Nutq tufayli obyektlarning aniq vazifalarini ogʻzaki ifoda qilish, shuningdek, navbatdagi faoliyatga diqqatni qaratish imkoniyati yuzaga keladi. Maktabgacha taʼlim tizimi uchun bolalarning bilish faoli-yati muammosi mazkur yosh davri uchun juda muhimdir. Doimiy ravishda oʻsib boradigan bilimlar hajmini oqilona hisobga

olish o‘sib kelayotgan avlodning ta’lim-tarbiyasiga yangi talablar qo‘yadi. Eng avvalo, kognitiv, ya’ni bilish faolligini rivojlantirish vazifasi turadi.

Ushbu yoshdagi bolalarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg‘urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. Shu sababli bolalarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hattiharakatlariga qiziqishni ilk bolalik davridan uyg‘otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar jo‘shqin rivojlanish bilan ajralib turadi. Maktabgacha yosh davrida turli yo‘nalishlar bilan bog‘liqlikda kuchli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, faoliyatning asosiy turlari, shuningdek, psixik jarayonlar faol rivojlanadi. Masalan, bolaning xotirasi ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlariga uchraydi. Jumladan, maktabgacha katta guruh bolalari qariyb 7-8 ta obyektни, tayyorlov guruhlarda esa 10-12 tagacha obyektни yodda saqlaydi. Sifat o‘zgarishlari shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat uning uchun qiziqarli axborotlarni yodda saqlaydi, shuningdek, yod olish tavsiya etilgan vazifalarni qabul qiladi, zarur ma’lumotlarni esda saqlashning alohida usullarini qo‘llay oladi.

Bola o‘zi uchun qiziqarli, ijobiy tasavvur uyg‘otadiganlarini yaxshi eslab qoladi. Psixologlarning ta’kidlashicha, bayon etilgan materiallarning hajmi narsa-buyum va hodisalarga emotsional munosabatni aniqlab beradi. V.S.Muxinaning fikricha, diqqatning yuqori holati atrof-muhitga yo‘nalganlik va unga emotsional munosabatni belgilab beradi. Shuningdek, tashqi tasavvurlarning mazmunan o‘ziga xosligi yosh bilan bog‘liqlikda diqqatni yuqori ekanligini ta’minlaydi.

Tasavvur maktabgacha yoshda shakllanadigan muhim o‘zgarishlardan biridir. Mazkur bos-qiçhda originallik va ixtiyoriylik kabi sifatlar shakllanadi. 5-6 yoshda bolalar mustaqil ravishda taklif etilgan mavzularda voqealar rivojining ketma-ketligiga asoslangan kichik ertaklar to‘qiy olishadi. Yetti yoshda bolalar aniq bir yo‘nalishdagi tasavvurlarga asoslanish, avvaldan bosqichma-bosqich belgilangan reja bo‘yicha unga qisman o‘zgartirishlar kiritishga qobiliyatli bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq va muomalaning ko‘pgina usullarini qisqa muddat ichida o‘zlashtiradilar. Ular yon-atrofidagilarning xatti-harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatadilar. Kattalarning yurish-turishi, munosabati, o‘zini tuta bilishi, nutqi va xatti-harakatiga taqlid qiladilar. Natijada o‘z tengqurlari bilan muloqotda bo‘lishga ehtiyoj seza boshlaydilar. Bu jarayonda kattalarning, xususan, ota-onalar va tarbiyachilarning ko‘rsatmalari, ibrat-namunasi muhim o‘rin tutadi.

Tarbiyalanuvchilarining ongida yuksak axloqiy-estetik sifatlarning shakllanishida oila a‘zolari va tarbiyachilarning faoliyati alohida ahamiyatga



ega. Zero, oila a'zolari, tarbiyachi va bola o'rtasida sofdillik, xushmuomalalik, kamtarlik, o'zaro hurmat bir so'z bilan aytganda samimiy munosabat kabi xislatlar mavjud bo'lsa, bu ibratli axloqiy-estetik sifatlar bolalarga ijobiy ta'sir etadi. Bola o'z oilasida, atrofida ko'rgan xatti-harakatlardan to'g'ri xulosa chiqarib, o'z yaqinlarini hurmat qilish va o'z burchini vijdonan bajarishga intila boradi. Badiiy-estetik rivojlantirish barcha yosh davrlarida amalga oshiriladi. Biroq maqsadga yo'naltirilgan badiiy-estetik ta'sir qanchalik erta amalga oshirilsa, uning natijaviyligi ham yuqori bo'ladi. Ilk rivojlanish yoshidanoq o'yin faoliyati orqali bola atrof-muhitni bilishga intiladi, taqlid qilish orqali insonlar bilan birgalikdaga hamkorlikdagi faoliyat va mu-loqot madaniyati elementlarini egallaydi. O'yin – bu ijodiy salohiyatni uyg'otish, tasavvurni rivojlan-tirish va dastlabki estetik taassurotlarni tarkib toptirishning asosiy va juda samarali usuli. Muloqot va faoliyat jarayonida egallangan ko'nikmalar maktabgacha yoshdagi bolada voqe'likka va san'atga el-ementar estetik munosabatni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda ularni badiiy-estetik rivojlantirishda integratsiya tamoyilini hisobga olish zarurligini alohida qayd etib o'tish zarur:

- maktabgacha yoshdagi bolaning xulq-atvori va faoliyati o'zida “hali yetarlicha tabaqal-ashmagan yaxlitlik”ni aks ettiradi;
- yaxlitlikning tarkibiy qismlarini erta anglash individga “narsa-hodisalardagi o'ziga xoslikni “tezda”, integral ko'rish” imkoniyatini taqdim etadi;
- olamning yaxlit manzarasi haqidagi bilimlarning erta egallanishi bolaning nazariy tushunchala-rini tarkib toptiradi, voqelikni qayta idrok etish darajasidagi integral obrazlarni boyitish uchun qulay sharoit yaratadi.

Maktabgacha ta'limning zamonaviy amaliyotida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish allaqachon keng ommalashgan. Integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng qo'llaniladi. Bar-cha rivojlanish markazlari (qurilish va konstruksiyalash, syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish, til va nutq, ilm-fan va tabiat, san'at va musiqa, musiqa va ritmika) bo'yicha mashg'ulotni maktabgacha yoshdagi bolalar o'quv faoliyatining asosiy shakli sifatida qayd etilgan. Biroq bolalar faoliyatining xilma-xil turlarini integratsiyalash maktabgacha ta'lim dasturlarini o'zlashtirish jarayonini tashkil et-ishda to'liq hisobga olinmagan.

Fikrlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bolaning muayyan darajada badiiy-estetik rivojlanishiga erishish ko'p jihatdan u tug'ilgan va



yashayotgan pedagogik va umummadaniy omil-larga bog'liq. Bolaning badiiy-estetik rivojlanishiga ko'proq erta ta'sir ko'rsatish imkoniyati mavjud. Bu eng avvalo, bola shaxsini jadal rivojlantirish, turli darajadagi axborotlarni idrok etishida uning psixofiziologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, ularni amaliy o'zlashtirish qobiliyatini tarkib toptirish bilan bog'liq. O'quv faoliyati o'z-o'zidan emas, integrativ tavsifga ega bo'lmaydi, kommu-nikativ, tasviriy, kognitiv, konstruktiv sohalar bo'yicha integrallashgan mashg'ulotlarni o'tkazish or-qali bolalar faoliyatining barcha turlarini, ularning integratsiyasini to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Yuqoridagi kamchilikka qaramasdan, maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalash respublikamiz-da maktabgacha ta'limni rivojlantirishda ijobiy ahamiyatga ega.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tmoqchimiz:

bolalarning maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish bilan parallel kechadigan nutqni o'zlashtirish jarayonida o'yin orqali bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishga xizmat qilu-vchi yoshiga mos holda turli she'r, hikoya, ertak, maqol kabilardan samarali foydalanish;

bolalarning muloqot jarayonida xulq va muomalaning ko'pgina usullarini o'zlashtirishida kat-talar, xususan, ota-onalar va tarbiyachilarning ibrat-namuna bo'lishlari;

amaldagi dastur – “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturidagi “Ijodkor-lik” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat davomida 5-6 yoshli bola ko'rsatib o'tilgan layoqatlarga ega bo'lishiga erishishni ta'minlovchi integral mashg'ulotlarni tashkil etish;

joriy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda bolalar faoliyatining xilma-xil turlarini integratsiyalashni hisobga olish.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги “Мақтабгача таълим ташкilotлари фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 391-сон Қарори.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Немов, Р. С. Психология [Текст] : учеб. для студентов высш. пед. учеб. заведений : в 3 кн. / Р. С. Немов. – М. : ВЛАДОС, 2011. – Кн. 2 : Психология образования.
4. Коршунова, Л. С. Воображение и рациональность [Текст] : опыт методолог. анализа познават. функции воображения / Л. С. Коршунова, Б. И. Пружинин. – М. : Изд-во МГУ, 1999.
5. Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000.
6. Сатир В. Психотерапия семи. – СПб; Москва 2000.
7. Кряжева Н.Л. Развитие эмоционального мира детей – Екатеринбург: У-Фактория, 2004. – 192 с.
8. Qodirov V. Creative And Rule-Based Games As A Factor In Developing Children's Ability To Think Independently. Psychology and education (2021) 58(2): 11501-11506.



9. Юсов Б.П. Взаимосвязь культурогенных факторов в формировании современного художественного мышления учителя образовательной области «Искусство» [Текст] / Б. П. Юсов. – Москва: Компания Спутник+, 2004.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bola shaxsini rivojlantirish masalalari va bunda axloqiy-estetik tarbiya bilan uyg'unlashtirishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maktabgacha katta yosh davrida bolalarning nutqni o'zlashtirish jarayoni tugallanishi, psixik jarayonlarning rivojlanishida nutq va muloqotning bolaga ta'siri, nutq yordamida unda yuzaga keladigan imkoniyatlar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish masalalariga ham to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы развития личности ребенка и важность сочетания его с нравственно-эстетическим воспитанием. Также затрагиваются завершение процесса овладения речью детей в возрасте дошкольного возраста, влияние речи и общения на ребенка в развитии психических процессов, возможности, возникающие у него с помощью речи, и организации комплексного обучения в дошкольных образовательных организациях.

SUMMARY

The article discusses the development of a child's personality and the importance of combining it with moral and aesthetic education. The completion of the process of mastering the speech of children of preschool age, the influence of speech and communication on the child in the development of mental processes, the opportunities that arise with the help of speech, and the organization of comprehensive education in preschool educational organizations are also touched upon.